



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
 НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
 SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

18
 NOYABR

**O‘ZBEKISTON
 DAVLAT BAYROG‘I
 QABUL QILINGAN KUN**

O‘zbekiston bayrog‘i

*Qalbimiz to‘la surur,
 To‘tiyo yurt tuprog‘i,
 Hilpirab turar mag‘rur,
 O‘zbekiston bayrog‘i.*

*Rangi hayot misoli,
 Yulduzlari hiloli,
 Mustaqillik timsoli,
 O‘zbekiston bayrog‘i.*

*Iftixor dilimizda,
 U yo‘ldosh yo‘limizda,
 Yuksalar qo‘limizda,
 O‘zbekiston bayrog‘i.*

*Gumbazlarda, yuksakda,
 Peshtoglarda, falakda,
 Ko‘ngillarda, yurakda,
 O‘zbekiston bayrog‘i.*

*Rangi hayot misoli,
 Yulduzlari hiloli,
 Mustaqillik timsoli,
 O‘zbekiston bayrog‘i.*

Iqbol Mirzo

Shahzoda Dilmurodova. Uslubiy elementlarni avtomatik aniqlash.....	191
Тимур Аюпов. Структура художественного мира ранних кавказских поэм и повестей М.Ю. Лермонтова.....	194
Нилуфар Кахарова. Исторические изменения в словарном составе языка: от архаизмов до неологизмов.....	198
Зайнаб Рахмонова. Лингвокультурная специфика концепта «власть» в современной русской языковой картине мира.....	200
Одинахон Зироятова. Лингвокультурологический анализ образов мужчины и женщины в узбекской и русской языковых картинах мира.....	203
Шоира Хошимова. Мифологические мотивы в современной литературе.....	205
Нилуфар Усанова, Махбуба Хмидова. Базовые концепты русского фольклора и отражение в них русской языковой картины мира.....	208
Барно Абдуллаева. Влияние лингвострановедческого и лингвокраеведческого материалов на формирование лингвокультурной компетенции.....	210
Феруза Джадилова. Значение интерактивных методов и педагогических технологий в обучении русскому языку.....	113
Ezoza Kilichova. Lexic semantic analysis of English and Uzbek physics terms.....	215
Fayyozjon Azimov. A modern approach to language teaching.....	218
Mirshod Abdurakhmonov. Ergonimes in uzbek media texts: functional aspect.....	220
Munisa Bozорова. Pragmatic aspects of deixis in agricultural texts.....	222
Kichik tadqiqot	
Salomat Matkarimova. Avaz O'tarning matbu' tatabbu'si.....	225
To'xtamurod Rajabov. Abdunabi Hamro lirikasiga xos xususiyatlar.....	227
Nilufar Babajanova. Milliy-madaniy tamoyillarning tilda aks etishi.....	229
Muxabbat Kurbanova. Image and composition in the novel "Riding the Yellow Giant" by Khudoyberdi Tokhtaboev.....	232
Kamolakhon Oripova. The main aspects of the study of language units in discourse.....	234
Alisher Hamidov. The Role of CAT Tools in Enhancing Simultaneous Translation Efficiency.....	236
Umida Yo'ldoshova. Teaching foreign languages as the second language.....	238
Zaynab Abdunazarova. Maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish metodikasi.....	240
Maftuna Ro'zmetova. Til materialini tanlashda uzviylikni ta'minlash.....	242
Munisxon Maxkamova. Ingliz va o'zbek tillarida axloqiy baho kategoriyasining qiyosiy chog'ishtirma xususiyatlari.....	244
Saida Yuldasheva. Pedagogika fanini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metod va texnologiyalar ahamiyati.....	246
Umida Muminova. "Mahbub ul-qulub" asari leksikasining semantik-stilistik tadqiqi.....	247
Zarifa Yoriyeva. Ernest Xeminguey va o'zbek adabiyoti; ta'sir hamda aksta'sir masalalari.....	250
Nafisa Jamalova. Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari.....	252
Shohistaxon Hatamqulova. Nemis tili darslarida elektron resurslardan foydalanish (Web quest ning roli)	253
Shaxnoza Muxtarova. Integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish.....	255
Shohsanam Tohirova. Zamonaviy ta'limni shakllantirishdagi tendensiyalar va kompetensiyaga asoslangan ta'lim.....	257
Feruz Rahmatova. O'zbek tilida "bosh" leksemasining ma'no taraqqiyoti.....	259
Zarnigor Eshimova. Atoyi she'riyatida xalqona urf-odatlar talqini.....	262
Yulduz Norqulova. "Yolg'izlik" qissasida qahramon ruhiy dunyosining tasviri.....	263
Дилфуза Умарова. Детективные сюжеты в произведениях писателей XIX века.....	265
Санобар Ул리에ва. Роль языковых единиц в создании художественного образа.....	267
Алина Хоменкова, Гулнара Назирова. Влияние иностранных языков на формирование лексики, отражающей этическую оценку личности.....	270
Мохира Хазраткулова. Понятие «лирического героя» в литературоведении.....	271
Эльвина Аджеминова. Фразеологический образ в ментальных языковых моделях пространства, времени и количества.....	273
Zahro Islomova. Exploring axiological lexic themes: values in language.....	275
Nafosat Xusanova. The foundation of effective public speaking skills.....	277
Nigina Akhmedova. Syntactic repetition and their stylistic figures.....	279
Guzal Shodiyeva. Current issues in pragmatics: a contemporary overview.....	281
Ravshan Saidov. Selection of literary texts for enhancing reading competence in philology students.....	283
Gulyora Saidova. Examining the Interaction Between Machine Translation Outputs and Human Post-Editing in Web 2.0 Environments during the written translation.....	285

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Апатова Н. В. Информационные технологии в школьном образовании. – М., 1994.
2. Захарова И. Г. Информационные технологии в образовании: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М., 2003.
3. Зубов А. В. Информационные технологии в лингвистике. – М., 2004.
4. Использование современных информационных и коммуникационных технологий в учебном процессе: учебно-методическое пособие / Авторы-составители: Д.П. Тевс, В. Н. Подковырова, Е. И. Апольских, М. В. Афолина. – Барнаул: БГПУ, 2006.

Shaxnoza MUXTAROVA,
 Chirchiq davlat pedagogika universiteti
 Gumanitar fanlar fakulteti
 O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi
shaxnoza1977xon@gmail.com



INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: maqolada “Ona tili o’qitish metodikasi” darslarida bo’lajak mutaxassislar axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni multimedia darslarini yuqori darajada sifatli tashkil etish, talabalar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan malaka va ko’nikmalarni hosil qilish, o’quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, malaka va ko’nikmalar darajasini baholash haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: *integratsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, taqdimot, slayd, multimedia, raqamli avlod, kasbiy kompetentlik.*

Аннотация: в статье на занятиях «Методика преподавания родного языка» будущие специалисты организуют педагогический процесс на высоком уровне в условиях информационного века, речь идет о контроле, оценке уровня полученных знаний, умений и навыков. их.

Ключевые слова: *интеграция, информационно-коммуникационные технологии, презентация, слайд, мультимедиа, цифровое поколение, профессиональная компетентность.*

Annotation: in the article, in the “Methodology of Mother Tongue Teaching” classes, future specialists will organize the pedagogical process at a high level in the conditions of the information age. it is about monitoring, assessing the level of knowledge, skills and abilities acquired by them.

Key words: *integration, information and communication technologies, presentation, slide, multimedia, digital generation, professional competence.*

Yurtimizda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlarda ta’lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi alohida tilga olinmoqda. Ta’limning hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanishi zarurligi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham ahamiyatli g’oyalardan biridir. Shuning uchun ham ta’limni rivojlantirishda integratsiyadan unumli foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ta’lim fan ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etish bo’yicha tajribalarni to’plash, ularni amalda qo’llash borasida o’qituvchilar faoliyatini tahlil qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda integratsiyali darslarni tashkil qilish va ta’lim samaradorligini oshirish bugunning dolzarb vazifalaridandir.

XXI-asr axborot-texnologiyalar asridir. Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-ma’naviy hayotining barcha sohalarini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, ta’limning barcha turlarida o’quv-tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalarini olib kirish orqali ta’lim sifatini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish, samaradorligini orttirishga keng e’tibor qaratilmoqda. Yurtimizda jahon axborot-ta’lim muhitiga integrallashishga yo’naltirilgan ta’lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o’zgarishlar kuzatilmoqda. AKTning ta’lim sohasiga kirib kelishi ta’lim usullari va o’qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o’zgartirish imkonini bermiqda.

Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda har bir pedagog zamonaviy axborot texnologiyalarini mukammal darajada o’zlashtirishi kerak. Shu maqsadda “Ona tili o’qitish metodikasi” darslarida bo’lajak mutaxassislar axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni, multimedia darslarini yuqori darajada sifatli tashkil etish uchun zarur bilim va ko’nikmalar orqali ijodiy hamda texnologik madaniyat, dars jarayonida qo’llaniladigan zamonaviy pedagogik

dasturiy vositalar, elektron ta'limiy vositalar, barcha fanlar singari ona tili va adabiyot uchun elektron ta'limiy resurslar va ularga qo'yiladigan talablar va bu borada chet el tajribasi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari kerak.

Bugungi kun auditoriyalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, interaktiv doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo'ldi. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qiladi. Raqamli avlod ota-onalarimiz o'rgangan uslubda o'qitilishi mumkin emas va bo'lmasligi ham kerak. Bu avlodni o'qitishda qora doska va oq bo'rdan foydalanish mumkin emas. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirish va IT - kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va kasbiy kompetentligini shakllantirish mumkin.

Kasbiy kompetentlikning bosh omili ham kasbga doir bo'lgan tushuncha va dunyoqarashlarning shakllanishidan iborat. Shunga ko'ra quyidagi omillar ona tili o'qitish metodikasining kasbiy kompetentlik bilan uzviy aloqadorlikni tashkil etadi. Ular: axborotlar bilan ishlash, nutqiy kompetensiyalarning o'zlashtirilishi, kasbga doir mavsumiy yangiliklardan xabardor bo'lish, dars jarayonini tashkil etishda milliy va xalqaro tajribalardan foydalanish, kasbga doir mavjud tajribalarning muntazam ravishda boyitilib borilishi, dars jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan metodlarning o'quvchilarga ta'siri, yosh xususiyati va o'zlashtirish darajasiga ko'ra dars uslublarining tanlanishidir.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta'lim tizimidagi barcha muammolarga yechim emas, balki raqamli avlod uchun ma'ruzalar va seminarlarni ma'lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Bunda ta'lim sifatini oshirish uchun texnik vositalar: audio-video, kino materiallari, kompyuterlar, videoprojektor, slaydlar, badiiy asarlardan parchalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'rinni foydalanish lozim.

Talabalarining dasturiy multimedia mahsulotlarini yarata olish malakasini shakllantirishda taqdimot dasturiga oid bilimlar bilan tanishib chiqamiz.

Power Point prezentatsion (taqdimot) grafikli

dasturlar qatoriga kiradi. Bunday dasturlar o'zida matnlar, rasmlar, sxemalar, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoqli videokliplar va boshqalardan iborat bo'lgan slaydlar hosil qilish imkonini beradi. Slaydlar ketma-ketligidan hosil bo'lgan prezentatsiyani (taqdimotni) kompyuter ekranida, videomonitorlar va katta ekranlarda namoyish qilish mumkin. Bu dastur bilan ishlashdan avval prezentatsiya, slayd, animatsiya tushunchalari haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim. Taqdimotni yaratish qoidalari: slaydlarni tayyorlashda shriftlarga, shriftlarning minimal balandligiga, ranglarning didaktik funksiyasiga va ranglarni ishlatishga, rang ta'siriga, slaydlarni ishlatish usullariga va slaydlarning mantiqiy harakatlarga mosligiga taalluqli eslatmalar o'ziga juda katta diqqat - e'tibor qaratishni talab etadi. Chunki slaydlar ta'lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. Zamonaviy o'quv jarayonini bu usulsiz tasavvur qilish mumkin emas. Ekranini ortiqcha ko'rgazmalilikka to'ldirish dars samaradorligiga putur yetkazadi.

Taqdimotning asosiy tamoyillari:

–Birinchi sahifada taqdimot nomi, ijrochining familiyasi, guruh haqida ma'lumot joylashtiriladi. Oxirgi sahifada "E'tiboringiz uchun rahmat!" yozuvi bo'lishi kerak. Sahifada minimum matn joylashtirilishi kerak. Sahifa 5-6 qatordan ko'p bo'lmasligi kerak. Agar taqdimot vaqtida katta axborot joylashtirish taqozo qilinsa, ularni bitta sarlavha ostida bir necha sahifaga joylashtirish kerak bo'ladi. Sahifada axborot va unga aloqador elementlarni shunday joylashtirish kerakki, ekran maydonining yuqori qismidan foydalanilsin. Shrift kattaligi — 24 pt bo'lsa, tinglovchilarning eng orqada o'tirganlari uchun ham ko'rinarli va qulay bo'ladi. Taqdimot rasmiylashtirilishida bir xillikni ta'minlash lozim.

Taqdimot sahifalari darsda o'tiladigan mavzuga muvofiq kelishi kerak. Ma'ruzaning har bir abzasi uchun sahifa ajratish ma'qul emas. Sahifani almashtirish effektini mumkin bo'lganicha qo'llash noto'g'ri, bu tinglovchilar diqqatini tortib, ma'ruzadan uzoqlashtiradi. Taqdimotning mazmuni asosan taqdimotchiga bog'liqligini, intonatsiya alohida ahamiyat kasb etishini, tinglovchilarni qiziqtiruvchi muhim omil ekanligini unutmaslik lozim.

Epizodik slaydlar bilan ishlashda: og'zaki, ko'rgazmali, matnli-axborotli majmua oddiy slaydni o'quv epizodiga, ya'ni darsning mustahkamlovchi qismiga aylantira oladi. Multimediali darsda son-sanoqsiz slaydlar talab qilinmaydi. Slaydlarning miqdori o'quv epizodlarining rejalashtirilishiga bog'liq bo'ladi. Darsni loyihalovchi o'qituvchi har bir o'quv epizodini mustaqil didaktik birbutunlikka aylantirishga harakat qilishi zarur. Epizodik slaydlarda taqdimot qilinarayotgan o'quv materialining ixchamlashtirilishi alohida ahamiyatga ega. Eng yaxshi qurilgan o'quv

epizodida ma'lumotlarning, axborotlarning quruq bayoni o'z ifodasini topmasligi kerak. O'quvchida, o'rganuvchida fikrlash paydo qilish qachonki, axborot to'laqonli bo'lmasa yuzaga keladi. Bundan tashqari, namoyish vaqtida ma'ruzachi tinglovchilarga orqa o'girib, faqat ekranga qarab taqdimotdan ko'zini uzmaganda holda matnni o'qib berish kabi xatolarga yo'l qo'ymasligi lozim. Texnik vositalardan aql bilan foydalanish, muammoli vaziyatlarni o'quv topshirig'iga aylantirishni uddalay olish AKTdan foydalanish me'yori buzmaslikning oldini oladi.

Ona tili darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda quyidagi usul yordamida qo'shma gaplarni izohlashni amalga oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

2. Adilova Sh., Yuldasheva Sh. Til ta'limida integrativ yondashuv. // O'zbek filologiyasining ilmiy-nazariy masalalari va o'qitish texnologiyalari (respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari). – Nukus: Nukus DPI, 2017. 88-90-b.

3. Eshmirzayev G.Y. Talabalar kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. // "Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendensiyalari: ta'lim va tarbiya integratsiyasi" (xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi). – Jizzax: 2021.

4. Jo'rayev R., Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash. – Toshkent: Sharq, 2005.

5. Muxamedova S.X. va b. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – Toshkent: "Excellent Polygraphy", 2020. 138-b.

6. G'ulomov A. va b. Ona tili o'qitish metodikasi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun darslik). Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2012.

Shohsanam TOHIROVA,

Qarshi davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

tokhirovashohsanam9420@gmail.com

ZAMONAVIY TA'LIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI TENDENSIYALAR VA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN TA'LIM

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy ta'lim va uni rivojlantirishdagi tendensiyalar haqida so'z yuritilgan. Zamonaviy ta'limni shakllantiruvchi tendensiyalar asosan pedagogik tadqiqotlar, texnologik yutuqlar va jamiyatdagi o'zgarishlar asosida vujudga keladi va rivojlanadi. Bunday tendensiyalar orqali ta'lim jarayoni yanada samarali tashkil etiladi, shuningdek ijtimoiy va iqtisodiy talablar bilan mos ravishda shakllanadi.

Kalit so'zlar: *pedagogik tendensiyalar, yangi ta'limiy texnologiyalar, yaxlit yondashuv, shaxsiylashtirilgan ta'lim, aralash ta'lim, moslashuvchanlik, gamifikatsiya, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, loyihaga asoslangan o'qish, integratsiya, ta'lim evolyutsiyasi.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются современные тенденции в образовании и пути его развития. Тенденции, формирующие современное образование, в основном основаны на педагогических исследованиях, технологических достижениях и изменениях в обществе. Благодаря этим тенденциям образовательный процесс становится более эффективным и адаптируется к социальным и экономическим требованиям.

Ключевые слова: *педагогические тенденции, новые образовательные технологии, целостный подход, персонализированное обучение, смешанное обучение, гибкость, геймификация, компетентностное обучение, проектное обучение, интеграция, эволюция образования.*

Annotation: this article discusses trends in modern education and their role in its development. The trends shaping modern education are primarily based on pedagogical research, technological advancements, and societal changes. Through these trends, the educational process is organized more effectively and adapts to social and economic demands.

Keywords: *pedagogical trends, new educational technologies, holistic approach, personalized learning, blended learning, flexibility, gamification, competency-based education, project-based learning, integration, education evolution.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim bu hozirgi kunda mavjud bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik talablar bilan mos keladigan ta'lim tizimi va yondashuvlar majmuasidir. Zamonaviy ta'lim tendensiyalari ta'lim sohasidagi texnologik